

## O'ZBEK TILIDA TASAVVUFİY LUG'AVİY QATLAM

**Maxmaraimova Shoxista To'xtashevna**

Ilmiy rahbar

Termiz davlat universiteti O'zbek tilshunosligi kafedrasi professori,  
filologiya fanlari doktori

**Yunusova Madina Baxriddin qizi**

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiyasi fakulteti talabasi

### ANNOTATSIYA

Maqolada o'zbek tilshunosligida tasavvuf va uning tili, mavzuiy-semantic guruuhlarini o'rganish tahlilga tortilgan. Muallif tasavvufdagi timsol va ramz ifodalovchi leksemalar ma'nosini ham lug 'aviy jihatdan, ham tasavvufiy jihatdan yoritib berishga harakat qilgan. Buyuk tasavvufshunos olimlar Najmuddin Komilov, Ibrohim Haqqul fikrlariga, qarashlariga tayangan holda o'z fikrlarini bayon etgan.

**Kalit so'zlar:** tasavvufiy lug 'aviy qatlam, tasavvufiy leksemalarning semantic-mavzuiy guruuhlari, timsol va ramz ifodalovchi leksemalar, hayvonlar momlarini ifodalovchi ramziy leksemalar, rang ifodalovchi ramziy leksemalar, shaxs oti ifodalovchi ramziy leksemalar.

Barcha ilmlar qatorida tasavvuf ham o'ziga xos ilm. Uning ham o'z tili, o'z yo'nalishi mavjud. Tasavvuf qalb, ruh va nafs pokligidir. Tasavvufning komillikka yetishish yo'li 4 ta bosqichga ajratiladi, ya'ni shariat, tariqat, ma'rifat va haqiqat. Bu bosqichlar bir-birini inkor qilmaydi, aksincha biri ikkinchisiga chambarchas bog 'lanib, biri ikkinchisining uzviy davomidir.

Tasavvufni Islomdan ayro tushunib bo'lmaydi. Tasavvufning asosi Qur'oni Karim va Hadisi Sharif ekan, biz uni shariatga zid qo'yolmaymiz.

Tasavvuf ham o'z atamalari, o'z terminlari, umuman olganda, o'z leksik qatlamiga ega bo'lgan ilm. Shu kabi jihatlari bilan tasavvuf va tilshunoslik o'rtasida o'zaro bog 'liqlik vujudga keladi. Hozirgi kunda tasavvufiy lug 'aviy qatlamni o'rganish bo'yicha izlanishlar, ilmiy ishlar kamchilikni tashkil etadi. O'zbek tilshunosligida tasavvufning o'rganilishi juda muhim va o'z asoslariga ega. Xususan, tasavvufiy lug 'aviy qatlamning o'rganilishida M.Axatovaning "O'zbek tili tasavvufiy leksikasining sistem tadqiqi" mavzusidagi dissertatsiyasi[3] tilshunoslik sohasidagi yutuqlardan biri bo'ldi. Bu dissertatsiya tasavvufiy leksikaning sistem tadqiqiga doir

yangi nazariyalar, mazkur yo‘nalishning hali ochilmagan ma’no qirralari ohib berilganligi va tahlil qilinganligi bilan ahamiyatlidir.

O‘zbek tilidagi tasavvufiy leksemalar o‘z o‘rnida bir qancha mavzuiy-semantik guruhlarga ajratiladi:

- Mavhum tushunchalarni ifoda etuvchi leksemalar;
- Shaxs ma’nosini ifoda etuvchi leksemalar;
- Timsol va ramz ifoda etuvchi leksemalar;
- Moddiy buyum, unsur, obyektlarni ifoda etuvchi leksemalar va h.k.

Tasavvufdagi mavhum tushunchalar deganda Alloh Taolonning muqaddas 99 ismlari; kitoblarda berilgan yagonaligi, ishqqa bog ‘liqligini e’tirof etuvchi ismlari; badiiy adabiyotlardagi majoz asosida yuzaga kelgan ismlari; shar’iy istilohlar; tariqat va suluk nomlari; Allohga talabgorlik yo‘lidagi maqomot nomlari va sayr-u suluk nomlarini ifodalovchi tushunchalar; ilohiy muhabbat va irfoniy bilimga oid istilohlar va h.k larni tushinish maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Shaxs nomlariga esa, avvalo, Muhammad Mustafo (S.A.V) ismlari, xalifalar, sahobalar, valiylar, shayxlar, Pir-u Murshidlar va umumiylar qilib aytganda tasavvufiy adabiyotlarda uchragan barcha shaxs otlari tushuniladi.

Moddiy buyum, obyekt va unsurlarni ifodalovchi leksemalar deganda ramziy emas, balki o‘z ma’nosida qo‘llanuvchi tasavvufga aloqador atamalarni tushunish maqsadga muvofiqdir. Masalan, obyekt ifodalovchi so‘zlar (chillaxona, hujra, madrasa, xonaqoh, qiro‘atxona), ust-bosh nomlari (salla, kuloh, xirqa), narsa-buyum nomlari (joynamoz) shular jumlasidandir.

Tasavvufda timsol va ramz ifodalovchi leksemalar ham o‘z ichida yana kichik-kichik guruhlarga tasniflanadi:

1. rang ifodalovchi ramziy leksemalar;
2. raqam ifodalovchi ramziy leksemalar;
3. hayvon nomlarini ifodalovchi ramziy leksemalar;
4. turli narsa-buyum, predmet va obyektni ifodalovchi ramziy leksemalar;
5. shaxs oti ifodalovchi ramziy leksemalar;
6. Inson tanasi qismlarining ham ramziyligini ifodalovchi leksemalar va h.k.[4]

Tilshunoslikdan-da tasavvuf bilan uzviy bog ‘lanadigan soha bu- adabiyot. Chunki tasavvufiy lug ‘aviy qatlamga oid leksemalar aynan tasavvufiy-badiiy adabiyotlardan olinadi. Tasavvuf adabiyotini, o’sha nasriy va nazmiy asarlar tilini o‘rganish ular anglatgan botiniy ma’nolarni anglashimizga xizmat qiladi.

Rang ifodalovchi leksemalar guruhi tahlilga tortilganda jimjimador timsol-ramzlarga urg‘u beriladi. Birinchi navbatda, “Bu ranglar nimani anglatadi?” yoki “Bu ranglar qanday ramziylikka ega?” singari savollar tug‘ilishi tabiiy hol. Rang

simvolikasi bo‘yicha bir qancha izlanishlar, tadqiqot ishlari ham amalga oshirilgan. Najmiddin Komilov, Ibrohim Haqqulov, Filologiya fanlari nomzodi O‘tanova Sirdaryoxon Hakimovna (ilmiy rahbar: Ibrohim Haqqulov) kabi olim va olimalar shular jumlasidandir.

Tasavvuf Mutlaq Ilojni tanish, sevish va unga yetishish ilmi hisoblanadi. Shu boisdan Alloh vasliga talabgorlik yo‘lidan borayotgan solik (murid)ning ruhi turli ranglar bilan ro‘baro‘ keladi. Piru Murshidlar muridlaridagi bu “talavvun” (rangbaranglik)ni doimo kuzatganlar va yangi vazifalarni yuklab turganlar. Shu ranglarga ko‘ra vahdat olami tomon safarga chiqqan oshiqning qaysi bosqichda ekanligi anglashilib turadi. Tasavvufshunos olimlarda ham 2 xil qarash bor. Ya’ni ruhning yo‘qlik(fano) olamiga singib, qo‘shilib ketishini ba’zilar qoralikdan oqlikka yetishish deyishsa, tariqat asoschilaridan biri Najmiddin Kubro oqlikdan qora ranglikka yetishni nazarda tutib, “...qora rangni hayrat belgisi hisoblab, ruhning fanoga g ‘arq bo‘lish holati ramzi sifatida ko‘rsatganlar”[1]. Turkiylarda ham “qora” rangi qadimdan buyuklik, ulug‘vorlik, hukmronlik ramzi hisoblangan. Buni tasavvufshunoslar ko‘p tahlil qilishgan. Ibrohim Haqqulovning “Zanjirband sher qoshida” asarida “Qora rang- muborak rang” nomli maqolasi o‘rin olgan. “...Alisher Navoiy o‘lmas salafi Nizomiyning ayni shu g ‘oyaviy qarashlarini rivojlantirib: “Qaro rang anga toju torakdur, Kim qaro rang ichradur muborakdur”, deb yozgan edi”[2]. Bu ramziylik o‘ziga xos hisoblanib, deyarli barcha tasavvufshunos olimlar vahdat olamiga yetishmoqqa eng yaqin bosqich bu qora rang bosqichiga yetishish deb hisoblaydilar. Xususan, kubraviya taqiqati asoschisi Najmiddin Kubroning oqdan qoraga qarab boruvchi ranglar tizimining ramziylik ma’nolarini ko‘rib chiqamiz. “Najmiddinn Kubro 7 rangni 7 tushunchaga moslab tushuntirgan. Uningcha, oq rang- Islomni, sariq rang- imonni, zangori rang- ehsonni, yashil rang- ishonchni, ko‘k rang- iqon (to‘liq ishonchni), qizil rang- irfonni, qora rang- hayajonni hayratni anglatadi”, - deya bayon qilgan tasavvufshunos olim Najmiddin Komilov o‘zining “Tasavvuf” asarida.

Tasavvufda raqam ifodalovchi leksemalar ham juda ko‘p. Ular ifodalagan ma’no ham aynan shu sonlarga aloqador. Masalan, 4(4 xalifa), 40 (40 kunlik chilla o‘tirish), 9 (9 osmon), 9 (Abu Nasr Sarroj tasnifi bo‘yicha 9 maqomot), 7 (nafs martabalari), 7 (“Lison ut-tayr”dagi 7 vodiy), 7 (holning 7 bosqichi), 6 (ruhning qattiqlikdan latiflikka qarab borishi, ya’ni latoifi sitta) kabilar.

Tasavvufda hayvon, maxluq va qushlar – jonzot nomlarini ifodalovchi ramziy leksemalar ham yo‘q emas. Ular ham o‘z ramziyligiga ega. Shuni bilish lozimki, aksariyat hollarda so‘zning lug‘aviy va tasavvufiy ma’nolarida ularni bog‘lab turuvchi bir xususiyati mavjud bo‘ladi. Masalan,

**It** – lug‘aviy ma’nosи “uy-ro‘zg‘orni qo‘riqlash, ov ovlash va sh.k maqsadlar uchun saqlanadigan...hayvon”[5]. Tasavvufiy adabiyotlarda kelganda “sadoqat,

vafodorlik” kabi ramziylikka ega leksemadir. Yana “daydi it” deyilganda jilovlanmagan, mahv etilmagan nafs ramzi sifatida keladi.

**Ajdarho** – lug‘aviy ma’nosı afsonaviy, katta qonxo‘r ilon. Bu leksema ham ramziylikka ega bo‘lib, u “kuchli nafs” timsoli hisoblanadi. Ajdarhoni mag ‘lub etish qiyin bo‘lgani kabi, nafsnı jilovlash ham g ‘oyatda murakkab ish.

**Dev** – lug‘aviy ma’nosı “ulkan, yovuz maxluq”. Katta, ulkan, salobatli degan ma’nolariga monand ravishda tasavvufda sultanat ramzi hisoblanadi. “farhod va Shirin” dostonida ham Farhodning Suqrotni toppish, unga yetishish yo‘lidagi balolardan biri bu dev, ya’ni Farhodning sultanatdan kechishi edi.

Samandar – olov ichida yashaydigan jonivor bo‘lib, u ilohiy ishq ramzidir.

Ko‘pincha, turli narsa-buyum, predmet va obyektlar ham o‘z ramziy ifodasiga ega bo‘ladi. Quyida misollar bilan ko‘rib chiqamiz.

Narsa-buyum nomlari:

**May** – lug‘aviy ma’nosı “mast qiluvchi ichimlik”. Tasavvufiy-ramziy ma’nosining ham lug‘aviy ma’noga bog‘liqligi bor. Orifona g‘azal-u ruboilarda ilohiy ishq, ma’rifat, ilohiy tajalliyot ramzidir.

Xum – may quyib ichiladigan idish, qadah, jom. So‘fiyona talqin qilinsa, “komil inson qalbi”, “ishq manbai” ramzidir.

Obyekt nomlari:

**Dayr** – asli arabcha so‘z bo‘lib, lug‘aviy ma’nosı nasroniylar ibodatxonasi demakdir. Bu obyekt nomi mayxona, butxona, sharobxona leksemalari bilan bir maqomda bo‘lib, komil inson huzuri, Allohga oshiqlarning majlisi, davrasiga ishora.

**Shaxs oti ifodalovchi ramziy leksemalar:**

**Mug‘anniy** – lug‘aviy ma’nosı “cholg‘uchi”. Uzluksiz yog‘ib turuvchi nur, fayzning navosini yetkazuvchi, shu ne’matdan ogoh etuvchi timsoli.

**Inson tanasi qismlarining ramziyligini ifodalovchi leksemalar:**

**Ko‘z** – tasavvuf adabiyotlarida ko‘p uchraydigan ramzlardan biri. U komil inson, g‘aybning manbasi, sir- u asrorlar chashmasi ramzidir.

Xulosa qilib aytganda, tasavvufning tilshunoslikdagi o‘rnini keng miqyosda o‘rganish, uning atamalari, terminlarining izohli, etimologik lug‘atlarini tuzishni yo‘lga qo‘yish muhim masalalardan biri. Undagi ramziyliklar, timsol va tamsillar tilini tushunish anglash uchun irfoniy ilmlardan boxabar bo‘lmoq lozim.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI: (REFERENCES)**

1. Najmiddin Komilov. Tasavvuf. – Toshkent: Movarounnahr – O'zbekiston, 2009.
2. Ibrohim Haqqulov. Zanjirband sher qoshida. – Toshkent: Yulduzcha, 1989.
3. Axatova M. O'zbek tili tasavvufiy leksikasining sistem tadqiqi: Fil.fan. dok. diss... - Toshkent, 2021.
4. Yunusova M. O'zbek tilida tasavvufiy atamalar // "Globallashuv sharoitida o'zbek tili nufuzini oshirishning nazariy va amaliy masalalariga yangicha yondasguv: muammo, yechim, istqbollar" mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy anjuman. – Navoiy: 2022. – B. 254-256.
5. O'zbek tilining izohli lug'ati. – Toshkent: "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" Davlat ilmiy nashriyoti, 2006.